Abstract: This article studies the transformation processes of commercial banks in the Republic of Uzbekistan based on a systematic approach. The study analyzes the integration of financial technologies (fintech), digital banking services, financial inclusion, ESG principles, and transformational management concepts into the practice of commercial banks from a scientific, theoretical, and practical perspective. The institutional and technological transformations necessary for the sustainable development of the banking system, their stages, indicators, and performance indicators, are analyzed in depth, and a comparative assessment is made based on international experience. According to the results of the study, proposals and practical mechanisms have been developed to increase the competitiveness of commercial banks, strengthen their transformational potential, and ensure financial stability. This scientific work is aimed at in-depth analysis and improvement of transformational reforms in the banking and financial sector at the PhD level.

Key words: commercial banks, transformation, digital finance, fintech, ESG standards, financial inclusion, institutional reforms.

Аннотация: В статье исследуются процессы трансформации деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан на основе системного подхода. В исследовании анализируется интеграция финансовых технологий (финтех), услуг цифрового банкинга, финансовой доступности, принципов ESG и концепций трансформационного управления в практику коммерческих банков с научной, теоретической и практической точек зрения. Глубоко анализируются институциональные и технологические преобразования, необходимые для устойчивого развития банковской системы, их этапы, показатели и индикаторы эффективности, а также проводится сравнительная оценка на основе международного опыта. По результатам исследования разработаны предложения и практические механизмы по повышению конкурентоспособности коммерческих банков, усилению их трансформационного потенциала, обеспечению финансовой устойчивости. Данная научная работа направлена на углубленный анализ и совершенствование трансформационных реформ в банковско-финансовой сфере на уровне докторантуры.

Ключевые слова: коммерческие банки, трансформация, цифровые финансы, финтех, стандарты ESG, финансовая доступность, институциональные реформы.

KIRISH

Bugungi global iqtisodiy muhitda raqobatning keskin kuchayishi, moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda bank mijozlari ehtiyojlarining sifat jihatdan o'zgarishi tijorat banklari faoliyatini chuqur transformatsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bank tizimi iqtisodiyotning qon aylanish tizimi sifatida real sektorni moliyalashtirish, to'lovlar infratuzilmasini yuritish hamda jamg'arma resurslarini samarali taqsimlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli tijorat banklarining zamonaviy talablar asosida transformatsiyalashuvi nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligiga, balki umuman iqtisodiy tizimning funksional samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-sonli¹ Farmoni doirasida milliy bank tizimi keng ko'lamli modernizatsiya bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri – tijorat banklarining institutsional, texnologik va boshqaruv salohiyatini transformatsiya qilish orqali bank xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021–2023-yillar davomida bank tizimini raqamlashtirish, risklarni boshqarish va kapital yetarilgini kuchaytirishga qaratilgan konsepsiyalar ham tizimdagi transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda [9].

Hozirgi bosqichda tijorat banklarining transformatsiyasi bir qator ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda: raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, mobil va internet-bank xizmatlarining ommaviylashuvi, kiberxavfsizlik infratuzilmasini takomillashtirish, "open banking" (ochiq bank tizimi) va fintech ekotizimiga integratsiyalashuv, shuningdek, ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarini bank boshqaruvi amaliyotiga joriy etish.

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining transformatsion jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilinadi, ularning samaradorlik mezonlari aniqlanadi hamda xalqaro tajriba asosida milliy transformatsion modelni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, mavjud tizimda uchrayotgan institutsional, texnologik va boshqaruv muammolarining yechimlari ham taklif etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi tijorat banklari faoliyatining yangi sharoitlarga moslashuvi va bu jarayondagi tizimli yondashuv zaruratidan kelib chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash jarayonlari iqtisodiyotdagi chuqur strukturaviy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu borada xalqaro hamda mahalliy adabiyotlarda keng ilmiy bahs yuritilgan. Ushbu adabiyotlar sharhi transformatsiya jarayonining konseptual asoslari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, institutsional islohotlar va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil etishga qaratilgan.

North D. (1990) tomonidan ilgari surilgan institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, tizimli transformatsiyalar muvaffaqiyati, asosan, rasmiy institutlar – qonunchilik, mulk huquqlari va regulativ mexanizmlarning samaradorligiga bog'liq. Mazkur qarashlar tijorat banklarining faoliyatini raqamlashtirish va boshqaruv tizimlarini yangilash zaruratini asoslab beradi [2].

Bank transformatsiyasi bo'yicha IMF (2021), Jahon banki (2022) hamda BIS (Basel Committee on Banking Supervision) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamlashtirish orqali banklar operatsion xarajatlarni 20–30 % ga qisqartirgani, mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi esa 2–3 barobar oshgani aniqlangan. Deloitte (2023) ham o'z hisobotida transformatsiyalashgan banklar foydalanuvchi tajribasi, raqamli ekotizimga integratsiya va innovatsion mahsulotlar orqali ustunlikka erishayotganini ta'kidlaydi [4].

Puschmann (2017) fintech kompaniyalar va an'anaviy banklar o'rtasidagi o'zaro raqobatni tahlil qilib, banklar uchun "open banking" va API texnologiyalarining dolzarbligini ko'rsatib bergan. Agarwal & Zhang (2020) esa transformatsiya strategiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun yetakchilik, texnologik tayyorgarlik hamda mijoz ehtiyojlariga mos mahsulotlar ishlab chiqish zarurligini asoslagan [1].

Mahalliy olimlardan G'aniev B., Sattorov A. va Qurbonov M. tomonidan 2021–2023-yillar oralig'ida yozilgan ilmiy maqolalarda O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida raqamli xizmatlarning joriy etilishi, kiberxavfsizlik, IT infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda bank menejmentining zamonaviy shakllari muhokama qilingan. Ular bank transformatsiyasi samaradorligini oshirishda raqamli moliyaviy savodxonlik, ichki audit xizmatlarini avtomatlashtirish va ESG tamoyillariga asoslangan boshqaruv modelining afzalliklarini alohida ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-sonli² Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bank faoliyatini raqamlashtirish strategiyasi" (2021–2025) ushbu sohadagi rasmiy strategik yo'nalishlarni belgilovchi asosiy hujjatlar hisoblanadi. Ular bank faoliyatining transformatsion modelini shakllantirishda tayanch hujjatlar sifatida xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining transformatsiyalashuvi institutsional islohotlar, texnologik innovatsiyalar, raqamli moliyaviy xizmatlar hamda xalqaro standartlarga muvofiqlik asosida amalga oshirilmoqda. Ilmiy qarashlar va empirik tahlillar transformatsiya jarayonida kompleks yondashuv zarurligini, xususan, strategik menejment, mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda ilg'or texnologiyalarni moslashtirish muhimligini ko'rsatadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining faoliyatini transformatsiyalash jarayonlarini chuqur ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy tamoyillar bilan bir qatorda amaliy yondashuvlar asosida tahlil olib borildi. Transformatsiya murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy-texnologik jarayon hisoblanib, uni o'rganishda turli metodologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tadqiqotda zamonaviy iqtisodiy tahlil vositalariga tayangan ko'p bosqichli, kombinatsiyalashgan metodologik yondashuv (mixed-method) qo'llanildi.

Avvalo, sifat va miqdoriy metodlarning uyg'unlashuvi orqali transformatsiyaga oid masalalarni har tomonlama yoritish imkoniyati yaratildi. Sifat yondashuvi bank faoliyatidagi transformatsiyaviy qarorlar, boshqaruv strategiyalari va tashkiliy o'zgarishlarni tahlil qilishda qo'llanilib, jarayonni chuqur anglashga xizmat qildi. Bu orqali banklar tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar – raqamli xizmatlarning joriy etilishi, yangi texnologiyalar asosida ishlovchi platformalarning yo'lga qo'yilishi hamda kadrlar malakasining oshirilishi kabi ko'rsatkichlar nazariy jihatdan talqin qilindi.

Shu bilan birga, miqdoriy metodlar yordamida transformatsiyaning banklarning moliyaviy samaradorligiga ta'siri statistik modellar orqali baholandi. Bunda, ayniqsa, operatsion xarajatlar darajasi, mijozlar sonining o'zgarishi, daromad koeffitsientlari, kapital rentabelligi kabi moliyaviy indikatorlar asosiy mezon sifatida tanlandi.

Tadqiqot jarayonida foydalanilgan ma'lumotlar manbalari birlamchi va ikkinlamchi guruhlariga ajratildi. Birlamchi ma'lumotlarga tijorat banklarining yillik hisobotlari, transformatsiya strategiyalari, Markaziy bank hamda Moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan statistik ko'rsatkichlar kiritildi. Ikkinlamchi ma'lumotlar esa xalqaro moliyaviy tashkilotlarning (IMF, World Bank, BIS) nufuzli hisobotlari, xorijiy va mahalliy ilmiy maqolalar, doktorlik dissertatsiyalari, shuningdek, JSTOR, SSRN va Scopus kabi ilmiy platformalarda chop etilgan tadqiqotlar asosida shakllantirildi.

Transformatsiya jarayonlarini chuqur o'rganish uchun bir nechta analitik metodlar qo'llanildi. Jumladan, SWOT-tahlil yordamida bank faoliyatining kuchli va zaif tomonlari, tashqi imkoniyatlar va tahdidlar aniqlandi. Regression analysis orqali raqamlashtirish darajasi bilan moliyaviy samaradorlik o'rtasidagi statistik bog'liqlik tahlil qilindi. Benchmarking usuli asosida O'zbekiston tijorat banklari bilan rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'zaro solishtirildi. Bundan tashqari, Delphi usuli yordamida tajribali bank mutaxassislarining fikrlari asosida strategik tavsiyalar shakllantirildi. PESTLE-tahlil esa transformatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni tizimli ravishda baholash imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida ilgari surilgan ilmiy gipotezalar nazariy asosga ega bo'lib, ular empirik jihatdan ham tekshirildi. Xususan:

Tijorat banklarining raqamli transformatsiya darajasi oshgani sari ularning operatsion samaradorligi yuqorilaydi;

Transformatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilgan banklarda mijozlar soni va daromadlar o'sish sur'atlari yuqori bo'ladi;

Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi bank xavflarini boshqarish sifatini oshiradi.

Tadqiqotning geografik doirasi sifatida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tanlab olindi. Xususan, "Ipoteka Bank", "Xalq Banki", "Agrobank" va "Kapitalbank" kabi yirik moliyaviy institutlarning transformatsion tajribasi chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar bazasi sifatida 2018–2024-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlar asosiy manba sifatida tanlandi.

Mazkur metodologik asoslar tadqiqotning ishonchliligini ta'minladi hamda yakuniy xulosalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirdi. Transformatsiya jarayonining ichki mantiqiy bog'liqliklari, omillar tizimi va institutsional muhit bilan o'zaro ta'siri kompleks yondashuv asosida aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining faoliyatini transformatsiyalash jarayonlari o'z mohiyatiga ko'ra murakkab, bosqichma-bosqich va chuqur institutsional moslashuvni talab qiladigan o'zgarishlar majmuasidan iborat. Transformatsiya bu faqat texnologiyani joriy etish emas, balki banklar boshqaruv madaniyati, inson kapitali, xizmat ko'rsatish strategiyasi va operatsion samaradorlikning butun tizimini qayta ko'rib chiqish jarayonidir. O'zbekiston tijorat banklari, xususan, "Ipoteka Bank", "Agrobank", "Xalq Banki" va "Kapitalbank" misolida olib borilgan amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda transformatsion islohotlar bank sektorida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Banklar transformatsiyasining markazida raqamlashtirish jarayoni turadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob qaytarish, xizmat sifati va tezligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, "Kapitalbank" 2024-yil holatiga ko'ra, barcha tranzaksiyalarining 85 foizdan ortig'ini raqamli kanallar orqali amalga oshirishga erishgan. "Ipoteka Bank"da esa mobil ilova orqali berilgan kreditlar



soni 2020–2023-yillar oralig'ida 4,7 barobarga oshgan. "Xalq Banki" esa o'z filiallar tarmog'ini optimallashtirish orqali xizmat ko'rsatish punktlari sonini qisqartirib, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonini 2,3 million nafarga yetkazgan.(1-jadval)

1-jadval. Tijorat banklari transformatsiyasining asosiy yo'nalishlari³.

Transformatsiya yo'nalishi	Asosiy vazifalar	Amaldagi muammolar
Raqamlashtirish va texnologik innovatsiyalar	Mobil ilovalar, API, open banking, blockchain joriy etish	IT infratuzilma eskiligi, texnologik integratsiya muammolari
Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish	Omni-kanalli xizmatlar, chatbotlar, masofaviy xizmatlarni kengaytirish	Filiallar haddan tashqari yuklangan, mijozlar kutish vaqti uzoq
Kadrlar salohiyatini rivojlantirish	Treninglar, innovatsion o'quv dasturlar, raqamli savodxonlik	Kadrlar yetishmovchiligi, o'qitish resurslari cheklangan
Kiberxavfsizlikni mustahkamlash	Antifraud tizimlar, axborot xavfsizligi protokollari, xavf monitoringi	Huquqiy va texnik himoya darajasi past, tahdidlar ko'pligi
Kredit portfelini avtomatlashtirish	Skoring tizimlari, sun'iy intellekt yordamida qaror qabul qilish	Risklar noto'g'ri baholanmoqda, qo'lda yuritiladigan jarayonlar mavjud
Moliya hisobotlarini raqamlashtirish	Real vaqt rejimidagi hisobotlar, avtomatik monitoring	Ma'lumotlar uzluksizligi ta'minlanmagan, tahlil yetarli emas
Strategik boshqaruvni optimallashtirish	KPI tizimlari, analitik platformalar orqali qarorlar qabul qilish	Subyektiv qarorlar ustun, strategik rejalashtirish zaif

Ushbu holatlar bank transformatsiyasining texnologik jihatdan muvaffaqiyatli kechayotganini, shu bilan birga, mijozga yo'naltirilgan yondashuv samaradorligini ko'rsatmoqda. Bu o'zgarishlar nafaqat xizmat ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilishga, balki mijozlar sodiqligini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

Transformatsiya jarayonlarining banklar moliyaviy natijalariga bevosita ta'sirini aniqlash maqsadida bir qator asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. 2018–2024-yillar oralig'ida raqamli tranzaksiyalarning ulushi 27 foizdan 85 foizgacha o'sdi, bu esa texnologik sarmoyalarning o'zini oqlayotganini ko'rsatadi. Bank xizmatlari xarajatlari 1200 milliard so'mdan 860 milliard so'mgacha kamaygan bo'lib, bu transformatsiya jarayonining iqtisodiy samaradorligini ifodalaydi. Aktivlar rentabelligi (ROA) 1,1 foizdan 1,9 foizgacha, o'z kapital rentabelligi (ROE) esa 9,8 foizdan 15,4 foizgacha oshdi.

Mazkur moliyaviy ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida banklar operatsion jihatdan samaraliroq faoliyat yurita boshladi, risklarni boshqarish sifati yaxshilandi, mijozlar bazasi kengaydi va rentabellik ko'rsatkichlari ijobiy o'zgarishga uchradi.

Transformatsion jarayonlarning muvaffaqiyati inson kapitalisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bank xodimlarining zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi, mijozlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalari va malakasi yuqori bo'lishi bugungi kundagi asosiy talab hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan banklarda 1 nafar xodimga to'g'ri keladigan mijozlar soni o'rtacha 17 foizga oshgan, xizmat ko'rsatish tezligi esa 20–25 foizga qisqargan. Ayniqsa, malaka oshirish kurslariga jalb qilingan xodimlar ulushi 2018-yildagi 28 foizdan 2024-yilda 72 foizga yetgani bank ichki salohiyatining sezilarli o'sishini bildiradi [7].

Demak, inson resurslariga sarmoya kiritish, ularni transformatsiya bosqichlarida faol ishtirok ettirish va zamonaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirish transformatsiya muvaffaqiyatining muhim omillaridan biridir (2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklari transformatsiyasi ko'rsatkichlari⁴.

Ko'rsatkichlar	2018	2020	2022	2024
Raqamli tranzaksiya ulushi (%)	27	43	68	85
Mobil ilova foydalanuvchilari (ming)	920	1 350	2 100	2 900
Bank xizmatlari xarajati (mlrd so'm)	1 200	1 070	940	860

3 Manba:Mualif ishlanmasi

4 Manba:Markaziy bank yillik hisoboti



ROA (Aktivlar rentabelligi) (%)	1.1	1.3	1.6	1.9
ROE (O'z kapital rentabelligi) (%)	9.8	11.2	13.7	15.4

Bundan tashqari, texnologik yangiliklarga kadrlar salohiyatining sust moslashuvi hamda kichik va o'rta banklarda transformatsiya uchun moliyalashtirish manbalarining yetarli emasligi dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu holatlar transformatsiya jarayonlarida banklar o'rtasida tengsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, tijorat banklarining faoliyatini transformatsiyalash – bu faqat texnologik yangilanish emas, balki strategik rejalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va institutlararo muvozanatni ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayondir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali banklar xizmat ko'rsatish sifati, operatsion samaradorlik va moliyaviy barqarorlikka erishmoqda. Biroq transformatsiyaning to'liq natijaga olib kelishi uchun mavjud tizimli muammolar bartaraf etilishi, islohotlar muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi zarur. Bu borada ilmiy asoslangan yondashuvlar, tajribaga asoslangan qarorlar va kompleks strategiyalar ishlab chiqilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda [7].

Tijorat banklarining transformatsiyalashuvi bugungi global moliyaviy makonda nafaqat texnologik, balki institutsional va strategik o'zgarishlar zaruratini taqozo etmoqda. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, transformatsion jarayonlar raqamli xizmatlar joriy etilishi bilan boshlansa-da, ularning muvaffaqiyatli yakun topishi uchun inson kapitali, boshqaruv madaniyati, mijozlarga xizmat ko'rsatish falsafasi va tashkiliy tuzilmalar izchil isloh qilinishi talab etiladi. Tadqiqotda olingan natijalar ushbu holatlarni chuqurroq anglash imkonini berdi.

Birinchidan, transformatsiya jarayonining iqtisodiy samaradorligi raqamli texnologiyalarni tatbiq etish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatmoqda. Mobil ilovalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushining keskin oshishi, tranzaksiyalar sonining ortishi va bank xizmatlari xarajatlarning kamayishi texnologik yechimlarning real ijtimoiy-iqtisodiy samara berayotganini tasdiqlaydi. Xususan, 2018–2024-yillar oralig'ida raqamli tranzaksiyalar ulushining uch barobarga yaqin oshgani transformatsiyaning natijadorligiga yaqqol dalildir.

Biroq ushbu raqamlar ortida inson omilining o'rni alohida ajralib turadi. Xodimlar salohiyati va xizmat ko'rsatish tezligi tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan sarmoya darajasi oshgan banklarda xizmatlar sifati yuqori, mijozlar soni esa ko'proq bo'lmoqda. Bu holat transformatsiya nafaqat texnologik jarayon, balki boshqaruv madaniyati va inson resurslarini rivojlantirishning kompleks kombinatsiyasi ekanini tasdiqlaydi. Transformatsiyaning eng muhim mezon – u keltirayotgan foydani mijozlar, xodimlar va jamiyat uchun qanday ko'paytirayotganidir.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar bank tizimlarida transformatsiya – bu bir martalik kompaniya emas, balki doimiy takrorlanadigan, iterativ (qayta baholanadigan va sozlanadigan) jarayon hisoblanadi. Banklar "agile" metodologiyalar asosida xizmatlarni doimiy takomillashtirish, mijoz tajribasini optimallashtirish va xavf omillarini oldindan aniqlash ustida ishlamoqda. O'zbekistonda ham raqamli strategiyalar shakllanayotgan bo'lsa-da, ko'plab kichik banklar hali bu yondashuvlarga to'liq moslasha olmagan.

Uchinchidan, transformatsiyaning moliyalashtirilishi va infratuzilmasi masalalari muhim muhokama mavzusidir. Raqamlashtirish va IT yangilanishlari katta kapital sarfini talab qilmoqda. Yirik banklar ushbu xarajatlarni ichki resurslar hisobidan qoplashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, kichik banklar uchun bu hali dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu esa banklar o'rtasida transformatsion tengsizlikka sabab bo'lmoqda va kelajakda ularning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

To'rtinchidan, tadqiqotda aniqlangan muammo va to'siqlar – ayniqsa, kiberxavfsizlik strategiyalarining yetishmasligi va platformalararo integratsiyaning zaifligi – bank tizimida transformatsion islohotlarni to'liq va xavfsiz amalga oshirish yo'lidagi asosiy tahdidlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday holatlar nafaqat mijoz ishonchini pasaytiradi, balki moliyaviy tizimning umumiy barqarorligiga ham xavf tug'diradi [8].

Shu nuqtai nazardan, muhokama qilinishi zarur bo'lgan eng muhim masala – transformatsiyani kompleks yondashuv asosida amalga oshirish zaruriyatidir. Bunda texnologik yechimlar bilan birga boshqaruv tizimi, inson resurslari siyosati, ichki nazorat va reguliyativ muvofiqlik ham mustahkamlanishi kerak.

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash jarayonlari zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida bank tizimining raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Tadqiqot natijalari asosida ta'kidlash joizki, transformatsiya – bu faqat texnologik jarayon emas, balki strategik, tashkiliy va inson resurslari omillariga asoslangan ko'p qirrali islohotdir. O'zbekiston tajribasi ko'rsatmoqdaki, tijorat banklarining raqamli xizmatlar joriy etish, masofaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish va moliyaviy samaradorlikni oshirishga qaratilgan transformatsion harakatlari aniq ijobiy natijalar bermoqda.

Xususan, banklar tomonidan raqamli platformalar joriy etilishi natijasida mijozlar soni va xizmatlar hajmi sezilarli darajada oshgan, operatsion xarajatlar qisqargan, foydalilik ko'rsatkichlari esa oshgan.



Transformatsiyalashgan banklarda mijozlar bilan ishlash sifati yaxshilangan, xizmat ko'rsatish muddati qisqargan, xodimlar salohiyati esa izchil ravishda oshib bormoqda. Bu esa transformatsiyaning bank ichki muvozanati va tashqi imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini bildiradi.

Shu sababli, transformatsiya jarayonini izchil va kompleks tarzda tashkil etish, bank tizimi ishtirokchilarining texnologik tayyorgarligini kuchaytirish, shuningdek, transformatsiyaga xizmat qiluvchi infratuzilmalarni davlat va xususiy sektor hamkorligida rivojlantirish zarur. Ayniqsa, regulyatorlar tomonidan banklar uchun transformatsion yo'l xaritasini ishlab chiqish, strategik ko'rsatkichlarni belgilash va monitoring tizimini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tijorat banklarining transformatsiyasi O'zbekiston moliyaviy tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yo'lida asosiy omillardan biri sifatida qaralishi lozim. Ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlar, xalqaro tajribani milliy sharoitga uyg'unlashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish istiqboldagi muhim ustuvorliklardan biri bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklarining transformatsiyalashuvi zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanish, balki strategik rejalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va institutsional muvozanatni ta'minlashni o'z ichiga oladi. O'zbekiston bank tizimi misolida olib borilgan amaliy tahlillar raqamli platformalarning joriy etilishi, operatsion xarajatlarning qisqarishi, mijozlar sonining ko'payishi va moliyaviy samaradorlikning ortishini yaqqol namoyon qildi.

Transformatsiya jarayoni faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmay, balki inson resurslariga sarmoya kiritish, boshqaruv madaniyatini takomillashtirish va xizmat ko'rsatish falsafasini qayta ko'rib chiqishni ham talab qiladi. Ayniqsa, xodimlarning salohiyati, mijozlar ehtiyojlariga mos yondashuv va xavfsizlik infratuzilmasi bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Shu bilan birga, transformatsiya jarayonida duch kelinayotgan tizimli muammolar – IT infratuzilmaning yetarli emasligi, kiberxavfsizlik strategiyalarining sustligi, kichik banklarning moliyaviy resurslar bilan cheklanganligi – bu yo'nalishdagi islohotlarni murakkablashtirmoqda. Banklar o'rtasidagi transformatsiya darajasidagi farqlar tizimda asimmetriya va raqobat muvozanatining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Shunday ekan, transformatsiya jarayonini kompleks va izchil tarzda amalga oshirish, davlat tomonidan strategik yo'l xaritalarini ishlab chiqish, banklar uchun texnologik va institutsional tayyorgarlikni oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining samarali transformatsiyasi O'zbekiston moliyaviy tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Puschmann, T., 2017. Fintech. Business & Information Systems Engineering, 59(1), b. 69–76.
2. Agarwal, R. va Zhang, J., 2020. Transforming through technology: Digital banking in emerging markets. Journal of Financial Services Research, 57(3), b. 245–262.
3. Deloitte, 2023. Banking transformation insights: Rethinking the future of finance. [online] Mavjud: <https://www2.deloitte.com>.
4. World Bank, 2022. Digital Financial Services: Challenges and Opportunities. Washington, DC: World Bank Group.
5. International Monetary Fund (IMF), 2021. Financial Stability and Digital Innovation. IMF Working Paper WP/21/45. Washington, DC: IMF.
6. Basel Committee on Banking Supervision (BIS), 2021. Sound Practices: Implications of Fintech developments for banks and bank supervisors. Basel: Bank for International Settlements.
7. Ganiev, B. va Sattorov, A., 2022. O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 3(4), b. 134–141.
8. Qurbonov, M., 2023. Tijorat banklarida transformatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 5(2), b. 58–66.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 12-maydagi "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni
10. <https://lex.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
